



KONFERENSIYA

**“ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMINI
RIVOJLANTIRISH VA UNGA QARATILGAN
KREATIV G’OYALAR,
TAKLIFLAR VA YECHIMLAR”**



«BEST PUBLICATION»
Ilm-ma'rifat markazi

“ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNGA
QARATILGAN KREATIV G'OYALAR, TAKLIFLAR VA YECHIMLAR”
MAVZUSIDAGI 17-SONLI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ON-LINE
KONFERENSIYASI
MATERIALLARI TO‘PLAMI
15-IYUN , 2021-YIL

17-SON

“DEVELOPMENT OF A MODERN EDUCATION SYSTEM AND CREATIVE
IDEAS FOR IT, REPUBLICAN SCIENTIFIC-PRACTICAL ON-LINE
CONFERENCE ON "SUGGESTIONS AND SOLUTIONS"

15 JUNE 2021

PART-17



Ushbu to‘plamda “Zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirish va unga qaratilgan kreativ g’oyalar, takliflar va yechimlar” mavzusidagi 17-sonli Respublika ilmiy-amaliy on-line konferensiyasiga kelib tushgan tezis va maqolalar o‘rin olgan.

Mazkur ilmiy-amaliy on-line konferensiyada zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirish jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish va loyihalashtirish, integratsion ta’limni rivojlantirishda yo‘nalishlar bo‘yicha kreativ g’oyalar, takliflar va yechimlarni amalga oshirish maqsad qilib olingan. Mazkur Respublika ilmiy-amaliy on-line konferensiya materiallaridan OTM professor-o‘qituvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari va umumta’limmababo‘qituvchilari, mustaqil tadqiqotchilar, magistrantlar, ilmiy xodimlar, iqtidorli talabalar hamda shu sohada ilmiy ish olib borayotgantadqiqotchilar foydalaishlari mumkin.

Eslatma! Konferensiya materiallari to‘plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g’riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

TAHRIRIYAT

Bosh muharrir

Maqsudov Ulug'bek Qurbanovich

Mas'ul kotib

Xasanov Tursunali Xaydarali o'g'li

Marg'ilon shahar 11-umumiy o'rta ta'lif maktabi o'qituvchisi

Nashrga tayyorlovchi

Qobilova Saidaxon Muahhamdjon qizi

Farg'ona davlat universiteti

Tahrir kengashi a'zolari

Mo'minov Qobiljon Qodirovich

Fizika-matematika fanlari doktori professor

Sultonali Mannopov

O'zbekiston xalq artisti, professor

Tuychiyeva Inoyat Ibragimovna

Pedagogikafanlari bo'yicha falsafa doktori

Nikadambayeva Hilola Batirovna

Uzbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Pirimov Akram Pirimovich

Navoiy davlat pedagogika instituti, dotsent

Shodiyev Furqat Davranovich

Navoiy davlat pedagogika instituti, Texnika fanlari nomzodi,

Dotsent

Qurbanova Muqaddas Omonovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Otaqulov Fozil Sobirovich

FarDU, bo'lim boshlig'i

Aslanov Xakimjon Ro'ziboyevich

FarDU, Harbiy ta'lif fakulteti Umumqo'shin tayyorgarligi sikli boshlig'i, podpolkovnik

Karimov O'Imasbek Umaraliyevich

FarDU o'qituvchisi

Xudoyberddiyev Elyor Xatamovich

O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi Farg'ona viloyat boshqarmasi boshlig'i o'rinnbosari, "Shuhrat" medali sohibi

Mamatqulov Muzaffar Odiljon o'g'li

O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi Farg'ona viloyat boshqarmasi bo'lim boshlig'i,

Юлдашева Д.Х Насирова З.Ж ГАСТРОЭЗОФАГЕАЛ РЕФЛЮКС КАСАЛЛИГИ МОРФОЛОГИК МАНЗАРАСИННИГ РЕФЛЮКСАТ МУҲИТИ ТУРИГА АЛОҚАДОРЛИГИ	84
Хайдарова Р.А Шаюсупова А.А ҲАМКОРЛИКДА ЎҚИТИШ ТАЛАБАЛАРНИНГ КОММУНИКАТИВ ВА ТАНҚИДИЙ ФИКРЛАШ САЛОҲИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРУВЧИ ТЕХНОЛОГИЯ СИФАТИДА	90
Махмудов Мухаммадкарим Содикжонович ОСОБЕННОСТИ КЛИНИКО – ГЕМОДИНАМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЗАБОЛЕВАНИЯ У ПАЦИЕНТОВ С ДИЛАТАЦИОННЫЙ КАРДИОМИОПАЦИЕЙ И ФИБРИЛЛАЦИЕЙ ПРЕДСЕРДИЕЙ	93
Рахимова М.Э. Туракулов Р.И., Нажмиддинов А.А., Очилов И.А., Ганиев Ж.И. АНАЛИЗ ОСНОВНЫХ ФАКТОРОВ РИСКА И ПУТИ ОПТИМИЗАЦИИ ПРИВЕРЖЕННОСТИ К ЛЕЧЕНИЮ БОЛЬНЫХ С ИБС.	97
Раъно Нарзуллаевна Абдуллаева ОСОБЕННОСТИ ЗАКЛЮЧЕНИЯ ТРУДОВОГО ДОГОВОРА О РАБОТЕ ПО СОВМЕСТИТЕЛЬСТВУ	99
Холназарова Матлуба Холбўтаевна Холназарова Дилдора Маматмуратовна ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ БУГУНГИ КУН МУАММОСИ СИФАТИДА	103
Abdiraimov Shohruh Samad O'g'li DARSLIKLARNING BAHOLASH TIZIMIGA TA'SIRI	106
Abdullaeva Muxlisa Alievna TARIXDAN PARCHALAR	109
To'ychiboev Abbosjon Erali o'g'li Umaraliyev Jamshidbek To'xtasin o'g'li KORXONALARDA INVESTITSIYALARNI BOSHQARISH MOHIYATI	112
Farxadova Nasiba Suxrob qizi INTEGRATED & SEGREGATED SKILLS	115
Ikromova Lola Boltayevna MAQOL - MATALLARNING HAYOTIMIZDA TUTGAN O'RNI VA DOLZARBLIGI	118
Muratova Dilnavoz O'ktamovna MUSIQA DARSLARIDA "MUSIQA TINGLASH" FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH	121
Tolibboev Muxtorjon Qosimjon o'g'li	125

MAQOL - MATALLARNING HAYOTIMIZDA TUTGAN O'RNI VA DOLZARBLIGI

Ikromova Lola Boltayevna
*O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri
Buxoro davlat universiteti o'qituvchi,*

Har bir xalqning o'ziga xos ma'naviy me'rosi mavjuddir. Bu me'rosni avloddan-avlododdga o'tkazish mana shu bag'rikeng xalqimizning ijodkorligi va soddadilligi asosida kelib chiqqan xalq og'zaki ijodining namunalari xizmat qiladi. Biz tarixni va adabiyotni o'qiymiz va va ma'lumotga ega bo'lamiz ammo buni o'zi yetarli emas qachonki, mana shu xalq og'zaki ijodining namunalarini eshitmas ekanmiz bizni xotiramizda aslo qolmaydi. Har bir yaratilgan maqol –matallar, afsonalar, ertaklar, topishmoqlar bu bizning tariximiz va avlodlarimizning ma'naviy me'rosi qay darajada boy ekanligidan dalolat beradi. Yoshligimni eslar ekanman, buvimni aytib bergen maqolu matallar, she'ru-qo'shiqlari hali hamong qulog'im ostida jaranglaydi. Buvim oliv ma'lumotli bo'lmasalarda ammo u kishining aytgan ertak, topishmoq, afsonalaru-she'rlaridan bilib olsa bo'lardi, ma'naviyatlik va keng fikrlaydigan inson ekanligini . Oddiy bir ayolning eshitgan va avlodlariga yetkazgan, ma'naviy me'rosini biz ham kelajak avlodlarga yetkazib berishimiz lozim.

Bu ertaklaru, maqol, matal, she'ru-qo'shiqlarning avloddan –avlodga yetkazishning nima ahamiyati bor deyishimiz mumkin?- har bir inson ulg'ayar ekan u yoshligidan allani eshitadi va hali yozish, chizishni bilmasданоq xalq og'zaki ijodidan bahramand bo'lib ma'naviyati yuksalib o'sadi. Xalq og'zaki ijodining vazifasi, o'zligimizni anglashda va avlodlarimiz kim bo'lganligini o'zida yaqqol namoyon qiladi. Endi asosiy mavzuimizga qaytadigan bo'lsak, xalqimizning boy me'roslarining ajralmas bir bo'lagi sifatida me'ros bo'lib kelayotgan maqol-matallarni o'rganish, va bunda xalqning turmush tarzi, insoniy his tuygularini aks ettirish doim dolzarblik kasb etib kelgan. Maqol xalqning pand-nasixati, ma'naviy-axloqiy xulosasi, xalq milliy ruhining aks-sadosi, til tabiatining hikmatli me'rosidir. Maqol chuqur ijtimoiy, axloqiy, falsafiy –hikmatona mazmunga ega. Maqol xalq aql-idrokining maxsuli, uning hukmi ko'p asrlik tajribalari majmui, turmushdagi turli voqeа-xodisalarga munosabatining ifodasıdır. Bu xususida birinchi prezidentimizning shunday fikrlari bor: "Ma'naviyati o'z xalqining tarixini, uning madaniyatini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi."

Matal esa narsa va hodisalarini obrazli ifodalovchi, tilda keng ifoda etiladigan nutqiy tarkibdir. **Maqol** so'zlovchining o'z nutqi mazmuniga munosabatini ifodalaydi. Maqol bilan matal o'rtaida umumiylig ko'zga tashlanadi. Bu umumiylig shundan iboratki, har ikki tushuncha ham nutqni jonlantirish, jozibador va obrazli qilish, fikrni tayyor nutq qoliplari, formulalari bilan ifodalash uni mazmundor qilishga qaratilgan. Lekin, shu bilan birga tugal fikrni o'zida ifodalagan maqollardan matallar jiddiy farq qiladi. Matal aytimoqcni bo'lgan fikr muddaoni boshqa vositalarni q'oya mutasaddi qilgan holda ifodalaydigan ko'chma ma'noli nutqiy tarkib bo'lib unda xulosa bo'lmaydi, balki uning o'zi

biron xulosa keltirib chiqarish uchun xizmat qiladi

Maqol – matal va hikmatli so’zlar

Maqollar- Grammatik jihatdan tugallangan fikrni bildiruvchi, kichik ixcham, o’tkir mazmunli, ko’chma ma’noda yoki ham ko’chma ma’nosida qo’llanadigan hikmatli xalq iboralaridir. Maqollarda fikrni lo’nda va tiniq ifodalash imkoniyatining mavjudligi nutqning ta’sirchanligini ta’minlashda juda qo’l keladi.

Yaxshining so’zi-qaymoq, Yomonning so’zi - to’qmoq.

Eshikli bo’lding - beshikli bo’lding. Chumchuq so’ysa ham qassob so’ysin.

Sulaymon o’ldi devlar qutildi. Hamal keldi - amal keldi kabi obrazli va yaxlit barqaror birikmalar maqol hisoblanadi. “Matallar –tarbiyaviy, pand-nasihat ma’nolarini ifodalovchi, grammatik jihatdan to’liq gap shaklida bo’lgan, faqat o’z ma’nosida- to’g’ri ma’noda qo’llaniladigan, qisqa, ixcham xalq iboralaridir”.

Masalan: *Go’sht suyaksiz bo’lmas, sholi-kurmaksiz. Guman iymondan ayirir. Gul tikonsiz bo’lmas* kabilar matal hisoblanadi. Hikmatli so’zlar ma’lum shaxslar tomonidan aytilgan yoki asarlarida ishlatilgan ixcham, ma’nodor, ishlatishga qulay va quyma fikrlardir. Nutqqa tayyor holda olib kirish imkoniyatiga ega bo’lgan bunday so’zlar aforizmlar ham deyiladi. Tilshunoslikda maqol-matal va hikmatli so’zlar “paremalar” deb yuritiladi.

O’zbek xalq maqollari, matallarini qiyosiy o’rganish va tahlil qilish bugungi kunda adabiyotshunoslik, tilshunoslik xususan folklorshunoslikning oldida, turgan muhim masalalardan biridir. Yuqorida sanab o’tilganlarning janr xususiyatlarini, ular orasidagi mazmuniy hamda shakliy bog’liqliklarni o’rganish orqali bular orasidagi chegarani ochish mumkin bo’ladi. U holda o’zbek xalq maqollari va matallaridagi to’plamlar tarkibida ham o’zgarish yuz beradi. Bunday to’plamlarning tarkibini qayta ko’rib chiqish asosida mavzuning dolzarb ekanligi anglashiladi. Maqol, matal janrlari orasidagi munosabat tadqiq etilib, matal va iboralarning o’ziga xos jihatlari, g’oyaviy-badiiy xususiyatlari o’zbek xalqi ma’naviyatida tutgan o’rni yoritib beriladi. O’zbek xalq maqollarini to’plash va o’rganish XI asrda **Mahmud Qoshg’ariy** tomonidan boshlab berilgan. Uning “**Devoni lug’otit - turk**” asarida 268 ta maqol keltirib o’tilgan. Chin ma’noda xalq maqollarini o’rganish, ularga qiziqish, to’plash XX asrdan boshlandi. O’zbek xalq maqollarini to’plash va nashr qilishda missioner N.G.Ostromovning xizmati katta. 1922-yilda G’ozi Olim Yunusov o’zbek xalq maqollarini to’pladi. Keyinchalik Mulla Bekjon Rahmon o’g’li tomonidan Xorazmda to’plangan 560 maqolni o’z ichiga olgan “O’zbekcha otalar so’zi” 1923-yilda nashr etildi. Folklorshunos olimlar maqollar va matallarni o’rganuvchi sohani **paremiologiya** deb atashadi. Paremiya-yunoncha chuqur ma’noli gap, hikmatli so’z, ibora, maqol, matal ma’nosini beradi. (O.Madayev)

Mahmud Koshg’ariy “**Devoni lug’otit turk**” tadqiqotida dala safarlarida yozib olgan 268 maqol matnini keltirgan. Bu namunalar qatorida biroz o’zgarish bilan yashayotgan quyidagilarni uchratamiz: “**Otug’ uzguch birla o’churmas**” – O’t alanga bilan o’chirilmas; “**Tog’ toqqa qavushmas, kishi kishiga qavushar**” – tog’ tog’ bilan uchrashmas, odam odam bilan uchrashar. Ayni paytda “**Ot tesa ag’iz kuymas**” – o’t degan bilan og’iz kuymaydi; “**tulki o’z iniga ursa, uzuz o’lur**” – tulki o’z iniga qarab hursa, qo’tir bo’ladi

kabi maqollar bugungi kunda unutilgan. Ular o'rniga "*Holva degan bilan og'iz chuchimas*", "*Vataniga tosh otgan, vatangado bo'ladi*" degan maqollar ham bor.

Dastlab bu maqolsifat jumla Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" kitobida Muhammad Payg'ambarimiz (s.a.v) hadisi ekani aytilgan edi. Ammo bu hikmatli so'z xalqimiz orasida ko'p qo'llanmagan. Mustaqillikdan so'ng eng ommaviy maqolga aylanib ketdi. Aslida, maqollar hayotda uchrab turadigan turli xil voqeа-hodisalarни ta'kidlash maqsadida paydo bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. (Karimov. I O'zbekiston milliy istiqlol iqtisod, siyosat-mafkura. 6 tomlik T.: O'zbekiston. 1996, 80-bet)
2. ("O'zbek xalq maqollari" I tom Toshkent 1987. 11-bet.)
3. (O'zbek folklori ocherklari. I tom 1988. 85-86 betlar)
4. (Muhammadjon Hakimov, Maqol terminlari haqida, O'zbek tili va adabiyoti jurnali , 1965,)
5. O'zbek xalq maqollari va matallarida chegara munosabati (Internet ma'lumot)